QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KOMBINANTI – BARQAROR KELAJAK KAFOLATI

Usmanov Dilmurodjon Dolimovich
Andijon davlat pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
Abdulxayeva Robiyaxon Abduzohid qizi
Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyatidagi "Qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinati" (K.M.I.CH.K) misolida zamonaviy sanoat korxonalarining ekologik barqarorlikka o'tish jarayoni tahlil qilinadi. Korxonaning 1965-yildan buyon bosib o'tgan tarixiy yo'li, ishlab chiqarilayotgan temir-beton mahsulotlari turlari va "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining amaliyotga tadbiq etilishi yoritilgan. Ayniqsa, ishlab chiqarishda havo filtrlaridan foydalanish, sizot suvlarini tejash va laboratoriya nazorati orqali mahsulot xavfsizligini ta'minlash kabi ekologik jihatlarga alohida urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar: *Andijon, qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinati, ekologik barqarorlik, yashil iqtisodiyot, yengli filtrlar (Baghouse filters), sizot suvlari, temir-beton mahsulotlari, barqaror kelajak, texnologik modernizatsiya, xususiy sektor, plastifikatorlar, korroziyaga chidamlilik, issiqlik himoyasi.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс перехода современных промышленных предприятий к экологической устойчивости на примере комбината «Производство строительных материалов»*

(К.М.И.Ч.К) в Андижанской области. Освещается исторический путь предприятия с 1965 года, виды производимой железобетонной продукции и внедрение принципов «зеленой экономики». Особое внимание уделяется экологическим аспектам, таким как использование воздушных фильтров в производстве, экономия сточных вод и обеспечение безопасности продукции посредством лабораторного контроля.

Ключевые слова: *Андижан, завод по производству строительных материалов, экологическая устойчивость, зеленая экономика, рукавные фильтры, сточные воды, железобетонные изделия, устойчивое будущее, технологическая модернизация, частный сектор, пластификаторы, коррозионная стойкость, теплозащита.*

Abstract: *This article analyzes the process of transition of modern industrial enterprises to environmental sustainability using the example of the "Building Materials Production Combine" (K.M.I.Ch.K) in Andijan region. The historical path of the enterprise since 1965, the types of reinforced concrete products produced, and the implementation of the principles of the "green economy" are highlighted. In particular, special emphasis is placed on environmental aspects such as the use of air filters in production, saving wastewater, and ensuring product safety through laboratory control.*

Keywords: *Andijan, building materials production plant, environmental sustainability, green economy, baghouse filters, wastewater, reinforced concrete products, sustainable future, technological modernization, private sector, plasticizers, corrosion resistance, heat protection.*

Kirish: Bugun biz yashayotgan dunyoda zamonaviy binolarning qad ko‘tarishi shunchaki qurilish emas, balki tabiat bilan uyg‘unlikda yashash

san’atiga aylanmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinatlari ko‘p yillar davomida faqat ”chang va tutun“ manbayi sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugun bu tushuncha butunlay o‘zgardi. Zamonaviy texnologiyalar tufayli kombinatlar endi atrof-muhitni asraydigan, havoni ifloslantirmaydigan va tabiiy resurslarni tejaydigan barqaror maskanlarga aylanmoqda. Zero, “barqaror kelajak“- bu nafaqat mustahkam uylar, balki farzandlarimiz uchun qoldiriladigan musaffo osmon va toza ekologiyadir. Andijon viloyatidagi “Qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinati (K.M.I.CH.K)“ aynan mana shu ezgu maqsad yo‘lida xizmat qilmoqda. Bu kombinant 1965-yilda ishga tushgan. O’sha vaqtda Qurilish ministirligiga qarashli 162-trestida “Управление производство технологический комплектация“ tashkiloti tresti qoshida bo’lgan. 2000-yilda trestdan ajralib chiqgan, ya’ni davlat tashkilotidan xususiy sektorga aylangan. Ajralib chiqib “Qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinanti MCHJ“ aylangan. Hozirgi kungacha barcha temir-biton mahsulotlarini ishlab chiqarilmoqda. Korxonada ishchilar soni 84 nafarga yetgan. Ma’lum bo‘lishicha, bu yerda nafaqat ish o‘rinlari yaratilmoqda, balki xodimlarning sog‘lig‘i va ovqatnishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Endilikda barcha ishchilar korxona hududida issiq ovqat bilan bepul ta’minlanmoqda. Bu esa sifatli natija garovidir. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ba’zilari quydagi jadvalda keltiramiz:

№	**Mahsulot turlari**
1	Suyuq beton qotishmalari
2	Poydevor bloklari
3	Ekin maydoni uchun bordyurlar
4	Baland joylarga mo’ljallangan zinapoyalar

5	Yo’lakka teriladigan bruschatkalar
6	Ariq latoklari
7	Kalodis va kalodis qopqoqlari
8	Yo‘l ajratuvchi beton to‘siq
9	Elektr ustun satalbalar
10	G’isht o’rniga ishlatiladigan bloklar

Asosiy qism: Bugungi kunda ekologik barqarorlik “yashil iqtisodiyot” tushunchasi jahon miqyosidagi dolzarb masalalar markazida turibdi. O‘zbekiston ham ushbu global jarayonning faol ishtirokchisi sifatida iqtisodiyotni rivojlantirishda tabiat va jamiyat mutanosibligini ta’minlashga intilmoqda. Endilikda iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlari nafaqat moddiy ehtiyojlar, balki atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatli yondashuv va tabiatga yetkaziladigan ta’sirlarni minimallashtirish orqali belgilanmoqda. Qurilish materiallari ishlab chiqarish kombinatini e’tiborli jihati shundaki, bevosita Andijon shahrining markaziy qismida qad rostlagan bo‘lsa-da, bugungi kunning ekologik talablariga to‘liq javob bermoqda. Korxona iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda, tabiat bilan mutanosiblikni ham saqlab, zamonaviy va xavfsiz ishlab chiqarish modelini namoyish etmoqda. Biz olib borgan o‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, korxonaning ekologik ko‘rsatkichlari yuqori darajada saqlanmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida changni tutib qoluvchi maxsus Yengli filtrlar (Baghouse filters) qo‘llanilishi tabiat musaffoligini saqlashga xizmat qilmoqda. Bu nafaqat tashqi muhit, balki kombinat ishchilarining sog‘lom mehnat sharoitlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Korxonadagi maxsus laboratoriya mahsulot sifati bilan bir qatorda, qurilayotgan uylarning inson salomatligi uchun ekologik xavfsizligini ham qat’iy nazorat qiladi.

Xususan, beton tarkibidagi plastifikatorlarning o‘zaro mutanosibligi, materialning tashqi tajovuzkor muhitga nisbatan korroziyaga chidamliligi hamda binolarning issiqlik himoyasi xususiyatlari doimiy monitoringdan o‘tkazilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, yakuniy mahsulotning inson salomatligiga ijobiy ta’sirini va xavfsizligini ta’minlaydi. Korxonaning yana bir diqqatga sazovor ekologik jihati shundaki, bu yerda ichishga yaroqli suvdan foydalanilmaydi. Buning o‘rniga, yer yuzasiga yaqin bo‘lgan sizot suvlaridan unumli foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa tabiiy resurslarni asrashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, korxonaning kanalizatsiya va oqova suvlarni chiqarish tizimi ham namunali holatda bo‘lib, atrof-muhit tozaligini saqlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ushbu korxona faoliyati sanoat rivoji tabiatga zarar yetkazishi shart emasligini amalda ko‘rsatib berdi. Ichishga yaroqli suvni tejashdan tortib, changni mikron darajasigacha tozalovchi filtrlargacha bo‘lgan har bir texnologik yechim — bu atrof-muhit oldidagi yuksak mas’uliyat ifodasidir.

Binobarin, iqtisodiy foydadan ko‘ra ekologik tozalik va inson salomatligini ustun qo‘yish mezoni kombinatni shunchaki ishlab chiqarish maskani emas, balki tabiat bilan uyg‘un rivojlanish tizimiga aylantirdi. Bu kabi “yashil” yondashuv shahar ekotizimini asrab qolish va kelajak avlodga musaffo havo qoldirishning eng to‘g‘ri yo‘lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sattorov, Z.M. Qurilish ekologiyasi/ Z.M. Sattorov. Toshkent: Sano-standart, 2017. – 364 b.

2. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish yuzasidan gigiyena fani oldidagi dolzarb muammolar, T.,2001

3. X.A.Akramov, M.Turopov “Beton va temir-beton texnologiyasi” Toshkent-2021 yil.

4. Sement kimyosi va beton texnologiyasi darsliklari: P. K. Mehta va Paulo J. M. Monteironing “Beton: mikro tuzilish, xususiyatlar va materiallar” Oktabr-20, 2001-y.

5. Beton va temir-beton texnologiyasi (Qurilish qorishmalari texnologiyasi). O‘quv qo‘llanma. TAQI -2020, Raximov Sh.T.4.Akramov, X. A., Isakulov, B. R., & Ametov, R. N. (2023). ZAMONAVIY UY-JOY QURILISHIDA KO’PCHITILGAN VERMIKULIT ASOSIDAGI ENERGIYA SAMARADOR ISSIQLIK IZOLYASION MATERIALLARNI QOLLASH.Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 263-265.5.

6. Sabirov F.O., Ametov R.N. Betonlarda kuzatiladigan korroziya sabablarini tahlil qilish // "Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari" ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.13879783.